
Talabalarga badiiy tarjimoni o'qitishning lingvodidaktik xususiyatlari

Yo'ldoshev Ulug'bek Ravshanbekovich

*Dotsenti,
Pedagogika fanlari doktori,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya *Dunyo mamlakatlari va xalqlarining o'zaro integrallashuvi natijasida turli xalqlarning badiiy asarlarini o'rganishga va shu orqali xalqlarning turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlar, an'ana va marosimlari bilan tanishishga qiziqish ortib bormoqda. Bu kabi say-harakatlarning kengayib borishi va madaniy aloqalarning jadallik bilan rivojlanishida tarjimonlar, xususan, badiiy adabiyot tarjimonlarining xizmatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Badiiy matnlar o'zida badiiy estetik qiymatni namoyon etganligi, tilning boshqa uslub va janrlariga doir leksikaning mavjudligi, turli badiiy tasviriy vositalar va konnotativ ma'noga ega til birliklarning faol qo'llanishi bilan jahon tarjimashunoslik ilmiy markazlarining asosiy izlanish yo'nalishlaridan bo'lib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan professional badiiy matn tarjimonini tayyorlash, bo'lajak tarjimonlarga badiiy tarjimoni o'qitish, ularda turli xil kasbiy hamda o'ziga xos ijodiy kompetensiyalarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.*

Kalit so'zlar *Tarjima badiiy tarjima, metodik mazmun, lingvistik xususiyat, metod, integratsiya, asliyat matn, tarjima matn*

Лингводидактические особенности обучения студентов художественному переводу

Юлдошев Улугбек Равшанбекович

*Доцент,
Доктор педагогических наук,
Узбекский государственный университет
мировых языков*

Аннотация *В результате взаимной интеграции стран и народов мира растёт интерес к изучению художественных произведений различных народов и, через это, к знакомству с образом жизни, культурой, обычаями, традициями и обрядами. Расширение таких инициатив и стремительное развитие культурных связей придают особую значимость деятельности переводчиков, в частности переводчиков художественной литературы. Поскольку художественные тексты демонстрируют эстетическую ценность, включают лексику, характерную для иных стилей и жанров языка, а также активно используют различные художественно-изобразительные средства и языковые единицы с коннотативным значением, они остаются одним из центральных направлений исследований мирового переводоведения. С этой точки зрения подготовка профессионального переводчика художественных текстов, обучение будущих переводчиков художественному переводу и развитие у них различных профессиональных и специфических творческих компетенций приобретают актуальное значение.*

Ключевые слова *Перевод, художественный перевод, метод, лингвистическая особенность, методическое содержание, интеграция, текст оригинала, текст перевода*

Linguodidactic Features of Teaching Literary Translation to Students

Yoldoshev Ulugbek Ravshanbekovich

Associate Professor,
Doctor of Pedagogical Sciences,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *As countries and peoples across the world become increasingly integrated, interest is growing in studying the literary works of different nations and, through them, in learning about ways of life, cultures, customs, traditions, and rituals. The expansion of such efforts and the rapid development of cultural relations underscore the importance of translators – especially literary translators. Because literary texts embody aesthetic value, incorporate lexis associated with other functional styles and genres, and make active use of diverse figurative devices and language units with connotative meanings, they remain a principal focus of global translation studies. From this perspective, preparing professional literary translators, teaching literary translation to future translators, and cultivating a range of professional and distinctive creative competencies are of pressing relevance.*

Keywords *Translation, literary translation, methodological content, linguistic feature, method, integration, source text, target text*

Talabalarga badiiy tarjimani o'qitishning mazmuni va metodik ta'minotini yaratish uchun badiiy tarjimaning lingvistik muammolarini talabalarga o'rgatish metodikasini yaratish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodika orqali talabalar asliyat va tarjima matnlarining lingvistik muammolari va ularni tarjima jarayonida bartaraf etish usullarini o'rganishadi.

Mazkur risolamiz orqali badiiy tarjimani talabalarga o'rgatishning zamonaviy

yondashuvlarini o'zida mujassam etadigan "Tarjima amallari intergratsiyasi" deb nomlangan metodikamizning mazmunini bayon etishni maqsad qildirk. Ushbu metodika talabalarga nafaqat badiiy tarjimani, balki boshqa uslubdagi matnlarni tarjima qilishni o'rgatishda ham muhim ro'l o'ynaydi. Ushbu metodikani tarjima ta'limida qo'llash jarayoni 4 bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi (1.1-jadvalga qarang):

1-bosqich	Talabalarga asliyat matni taqdim qilinadi va ularga birgalikda asliyat matnining fonetik, morofologik, sintaktik, leksik-semantik, stilistik xususiyatlari, shuningdek, badiiy matndagi badiiy estetik ma'noning aks etish jihatlari, badiiy matnda qo'llangan badiiy tasviriy vositalarni tahlil qilish topshiriq qilib beriladi. Bu bosqichda talabalar asliyat matnini tarjima tiliga o'g'irish jarayonini amalga oshirmaydi, balki tarjimaga yondashuv masalalarini aniqlab oladi. Bu jarayonda tarjima amaliyotining barcha bosqichlari uchun tegishli tarjima uslublari tanlanadi va ulardagi mavjud yo'riqnomaga amal qilgan holda tarjima amaliyotini amalga oshiradi. Asliyat matni badiiy uslubga xos matn bo'lganligi uchun talabalarga semantik, idiomatik, ijodiy, kommunikativ tarjima uslublari tanlanishi o'qituvchi tomonidan takidlab o'tiladi. Talabalar asliyat badiiy matnini lingvistik va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali o'zining tarjimaga yondashuvlarini belgilab oladi.
------------------	---

2- bosqich	Bu bosqichda talabalarga aslyat matnidagi lisoniy birliklar, tarjima qilinishi jihatidan murakkab bo'lgan birliklar yoki tarjima qilinmaydigan lisoniy vositalarni tegishli tarjima usullaridan foydalanish bo'yicha axborot beriladi. Bu jarayonda o'qituvchi tomonidan fonetik tarjima usullari (transkripsiya, transliteratsiya, so'z o'zlashtirish), morfologik tarjima usullari (transpozitsiya), sintaktik tarjima usullari (kalkalash, qismlarga ajratish, kengaytirish, kompressiya, inversiya, so'z qo'shish va so'z tushirib qoldirish), leksik tarjima usullari (ekvivalentlik va uning turlari, umulashtirish, tavsillash, implikatsiya, eksplikatsiya) va tegishli stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalari haqida ma'lumot beriladi.
3- bosqich	Bu bosqichda bevosita tarjima jarayoni amalga oshiriladi. Talabalar mazkur metodikaning 1-va 2- bosqichda o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalangan holda aslyat matnini tarjima tiliga olib o'tish bilan shug'ullanadi. Bu vazifani har bir talaba individual tarzda bajaradi va ta'limning ushbu bosqichida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv amalga oshiriladi. Shuningdek, o'qituvchi tomonidan tarjima usullari va strategiyalardan tegishli til birliklarini aslyat matnidagi tarjima tiliga olib otish jarayonida samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar taqdim qilinadi. Mazkur bosqichda tarjima amaliyoti to'liq amalga oshiriladi.
4- bosqich	Mazkur bosqich talabalar tomonidan amalga oshirilgan tarjima matnini tahlil va tahrir qilish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda ikki xil yondashuv amalga oshirilishi mumkin. Tarjima matnini tahlil va tahrir qilish shaxsga yo'naltirilgan yoki kommunikativ yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali professor-o'qituvchi har bir taralabining tarjima matnini alohida tahrir va tahlil qilishi yoki kommunikativ yondashuv orqali talabalarni ikki guruhga ajratgan holda birinchi guruh talabalarining tarjima ishlari ikkinchi guruh talabalarini orqali tekshirilishi mumkin. Bu yondashuv jarayonida o'qituvchi tomonidan diskussiya vaqti intefaoal metodi ham qo'llanishi mumkin. Tarjima matnini tahlil va tahrir qilish jarayonida har bir yondashuvda ham o'qituvchi tomonidan tarjima matnlariga nisbatan fidbeklar beriladi, tarjimadagi g'alizlik yoki xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tiladi.

1.1-jadval. "Tarjima amallari integratsiyasi" metodikasini qo'llash bosqichlari

Umuman olganda "Tarjima amallari integratsiyasi" metodikasi talabalarining lingvistik va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur metodikaning 1-va 2-bosqichida lingvistik va kasbiy kompetensiyalar bo'yicha bilim, 3-bosqichda konikma va 4-bosqichda malaka takomillashadi.

Yuqorida takidlab o'tilganidek, "Tarjima amallari integratsiya" metodikasi orqali o'qituvchi tarjima jarayoniga talabalarining yondashuvini belgilab berishi maqsadga

muvofiq. Bu o'rinda o'qituvchi talabalarining tarjima jarayoniga qaysi yondashuvlarni amalga oshirishni tushuntirib o'tadi. Pedagogikada yondashuv tushunchasi orqali rahbarning, ta'lim muassasasi mutaxassisining o'z harakatlarini amalga oshirishga yo'naltirilganligi, pedagogik faoliyatning o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalari, tamoyillari, g'oyalari va usullarining ma'lum bir majmuasidan foydalanish nazarda tutiladi. Yondashuv murakkab pedagogik vosita bo'lib, zamonaviy amaliyotning asosiy tushunchalari,

faoliyat tamoyillari, ta'limni qurish texnikasi va usullarini o'z ichiga oladi. Tarjimashunoslikda bu hodisa tarjima strategiyasi deb ataladi. "Tarjima strategiyasi tarjimaning maqsadi doirasida yuzaga keladigan aniq tarjima muammolarining yechimini topish uchun tarjimonning ongli ravishda tuzgan yashirin rejalari" (Krings, 1986). Tarjima strategiyasi tarjima boshlanishidan oldin va jarayonda tuziladigan reja bo'lib, bunga ko'ra, tarjimon o'quvchining maqsadi, mavqei, bilim darajasi, asliyat matnining uslubi kabi omillarni o'rganib chiqib, matnni o'girish uchun uslub va matndagi kichik birliklar uchun transformatsiya tanlashni o'z ichiga oladi.

Badiiy tarjimani talabalarga o'qitishda tarjimaga yondashuvni, ya'ni tarjima strategiyasini to'g'ri tashkil etishni talabalarga o'rgatish maqsadga muvofiq. Bu bevosita tarjimonning professional kompetensiyasini shakllanishiga ham olib keladi.

Quyida badiiy tarjimani o'qitish metodikasini yaratish bo'yicha tarjimaning asosiy lingvistik xususiyatlari, badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etishni talabalarga o'qitish xususiyatlari bayon etiladi.

Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish metodikasi

Metodik ta'minot orqali talabalar o'rganadi:

- Badiiy tarjimada qo'llanadigan semantik, kommunikativ, idiomatik, ijodiy tarjima uslublari;
- Badiiy tarjimada qo'llanadigan so'z o'zlashtirish, transkripsiya,

transliteratsiya, tafsillash, ekvivalentlik, boshqa so'zlar bilan ifodalash, eslatmalar, ma'noni ochib berish, yashirin ma'no berish kabi tarjima transformatsiyalari;

- Asliyat va tarjima tillaridagi leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari borasidagi farqli jihatlari;
- Badiiy tarjimada uchraydigan leksik-semantik muammolarni bartaraf etish usullari.

Darsning kirish qismida o'qituvchi semantik, kommunikativ, idiomatik, ijodiy tarjima uslublari, ularning tavsifi, mohiyati borasida talabalarga tushuncha beradi va shu orqali mana shu tarjima uslublarning me'yorlari asosida tarjimaga yondashiladi hamda talabalarga asliyat matni havola etiladi.

Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish metodikasida asliyat badiiy matnida qo'llangan leksik birliklar, ularning muallif tomonidan qo'llangan denotativ va konotativ ma'nolari, so'zlarning polisemantik xususiyatlari, terminlar, realiyalar, neologizm va okkazonalizmlar, leksik birliklarning yasallish shakliga ko'ra qo'shma so'zlar, qisqartmalar, konversiyalarning tarjima tilida to'g'ri qayta ifodalanishi kabilar talabalarga o'rgatiladi. Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etishda leksik-semantik transformatsiyalardan to'g'ri foydalanishni talabalarga o'qitish muhim hisoblanadi (1.2-jadvalga qarang).

So'z o'zlashtirish	Ekvivalentlik	Moslashtirish	Transliteratsiya
Kalkalash	Madaniy ekvivalentlik	Kompensatsiya	Boshqa so'zlar bilan ifodalash
Transpozitsiyalar	Tasviriy ekvivalentlik	Aniqlik kiritish	Ma'noni ochib berish
Umumlashtirish	Funksional ekvivalentlik	Qismlarga ajratish	Yashirin ma'no berish
Transkripsiya	Shakliy ekvivalentlik	Kengaytirish	Esatmalar
So'z maqomini boshqa til xususiyatiga moslashtirish			Tafsillash

1.2-jadval. Badiiy tarjimada qo'llanadigan leksik transformatsiyalar

Mazkur tarjima transformatsiyalari badiiy matnda qo'llangan leksik birliklarni adekvat tarzda tarjima matniga olib o'tishda tarjimonga bevosita yordam beradi. Bugungi kunda tarjimon tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarining o'quv adabiyotlarida tarjimashunoslikning fundamental tushunchalaridan bo'lgan ushbu transformatsiyalariga yetarli dars soatlari ajratilmaganligiga guvoh bo'ldik.

Asliyat matni: *Nihoyat, soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o'ttiz chog'liq yosh yigitlar – Rahmatning o'rtoqlari, ular orasida Otabek – kuyav ko'rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'...* (Qodiriy, 2009).

K. Ermakova tarjimasi: *At last, at about half past five, Atabek the bridegroom appeared, accompanied by about twenty or thirty young men, friends of Rakhmat. He was dressed magnificently: a shimmering silk turban on his head, a marten fur coat lined with black woollen cloth on his shoulders, with a blue woollen camisole underneath, tailored in Shamay to his own design. He also wore woollen trousers. His feet were shod in city boots, and around his waist was a gift, a silk cummerbund skilfully embroidered by Kumush...* (Qodiriy, 2018).

I. To'xtasinov tarjimasi: *At last, at about five-thirty, Otabek appeared accompanied by Rahmat's friends, between twenty or thirty young men. He was dressed beautifully. Resting on his head was a silver silk Chalma turban, and on his shoulders hung soft marten furs lined with a coarse-spun fabric. He wore garments ordered especially from Shamai, a sky-blue cloth tunic with matching trousers. His feet displayed supple leather boots and around his slim waist was a silk sash made by the masterful hands of Kumush Bibi* (Qodiriy, 2017).

M. Riz tarjimasi: *At last, the groom came at five thirty with about twenty or thirty young men – Rahmat's friends, among them the*

groom – Otabek with a silver silk turban on his head, black fur coat, his own light blue vest which he had sewn in Shamai, broadcloth pants, leather shoes; he had on his abdomen a wide silk belt (kerchief) which had been embroidered and sewn by Kumush herself... (Qodiriy, 2019)

Ushbu badiiy matn tarjimasida leksik-semantik muammolardan biri "salla" milliy madaniy leksik birligi tarjimasi bilan bog'liq. Salla, odatda, boy kiyadigan (o'raydigan) kiyim bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari orasida ko'proq ulamolar tomonidan kiyiladi. Shuningdek, o'zbek milliy to'ylarida salla kuyov tomonidan to'y kuni kelin uyiga borish paytida ham kiyiladi. Tarjima variantlarida barcha tarjimonlar ushbu leksik birlikni ingliz tiliga "turban" tarzida o'g'irgan. "Turban" jahon xalqlari orasida ko'proq hindlarning sinh elatlari orasida mashhurdir. Ushbu bosh kiyim ularning e'tiqodiga ko'ra, har kungi turmush tarzining ajralmas qismidir. Bundan tashqari "turban" ayollarning bosh kiyimi ham hisoblanadi. Biroq, ushbu matnda ishlatilgan "salla" leksik birligi o'ziga xos milliy-madaniy ma'no kasb etib, "turban"ga to'liq ekvivalent bo'la olmaydi. Shuning uchun ushbu so'z ingliz tilida transliteratsiya qilinib, "Salla (Uzbek men's national traditional head clothe)" tarzida berilsa, maqsadga muvofiq. Bundan tashqari ushbu matnda "shohi qiyig'" so'z birikmasi ham mavjud bo'lib, ushbu kiyim bo'lagi ham o'ziga xos milliy madaniy xususiyatga ega. Ushbu leksik birlikning tarjimasi Mark Riz va I. To'xtasinov tarjima variantlarida asliyatga yaqinroq ma'no kasb etgan. Chunki, "shohi qiyiq", odatda, Markaziy Osiyo xalqlarining to'n ustidan bog'lanadigan "belbog'" leksik birligiga ham yaqindir. Ushbu leksik birlik M. Riz tarjimasida *silk belt (kerchief) – ipak kamar*, I. To'xtasinov tarjimasida *"silk sash – ipak kamar"* tarzida berilgan. Lekin kamar va belbog' bir-biridan funksiyasi, ko'rinishi va foydalanish maqsadiga ko'ra jiddiy farq qiladi. Kamar (belt), odatda, erkak va ayol kishi shimlarida foydalanilsa, "qiyiq", odatda, to'nning ustidan bog'lanadigan va tugma vazifisini bajaradigan anjom sifatida uchun

foydalaniladi. Chunki, odatda to'nda tugma bo'lmaydi. Qiyiq esa shu vazifani bajaradi. Shuning uchun ushbu so'z birikmasini usullar uyg'unligidan foydalanib, ya'ni bir leksik birlik tarjimasini uchun madaniy ekvivalentlik, transliteratsiya hamda kalkalash transformatsiyalaridan foydalanib, "silk belbogh" tarzida ingliz tiliga tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini talabalarga o'rgatishga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarida qo'llanadigan interfaol metodlar asosan badiiy matnda qo'llangan so'zlar, ularning bog'liqligi, so'zlarning polisemantik ma'nolari hamda kontekstual ma'nolarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Oltita fikrlovchi qalpoqcha (Six thinking hats) interfaol metodi muayyan mavzu (muammo) yuzasidan bir necha, ya'ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta'minlovchi harakatni ifodalaydi. Unga ko'ra talabalar olti xil rangdagi qalpoqlarni kiyish orqali fikrlashning muayyan jarayonlarini amalga oshiradi. Badiiy tarjimaning leksik-semantik muammolarini bartaraf etish usullarini o'rgatish metodikasida qalpoqlachalarning ranglari ostida aslyat matnida qo'llangan leksik birlikning tarkibi belgilanadi hamda quyidagi ranglar ostida tegishli leksik birliklar va ularning kontekstual ma'nolarini topish va matnga moslab tarjima tiliga olib o'tish talabalarga topshiriq sifatida beriladi (1.3-jadvalga qarang).

Oq qalpoq	denotativ so'zlar
Qizil qalpoq	polisemantik so'zlar
Qora qalpoq	konnotativ ma'noli so'z va so'z birikmalar
Sariq qalpoq	terminlar
Yashil qalpoq	neologizmlar
Ko'k qalpoq	realiyalar

1.3-jadval. Oltita fikrlovchi qalpoqcha (Six thinking hats) interfaol metodini badiiy tarjima darasida qo'llash bo'yicha namuna

Bu yerda qalpoqlarning ranglari bo'yicha leksik birliklar tarkibini taqsimlashdan maqsad shuki, yorqin ranglar, jumladan qizil, qora, hamda ko'k qalpoqlar ostidagi so'z va so'z birikmalari badiiy tarjimada leksik-semantik muammolarni yuzaga keltirishda asosiy rol o'ynaydi. Oq, sariq hamda yashil rangdagi so'z va so'z birikmalarining tarjimasida esa talabalar nisbatan kamroq muammolarga duch kelishadi. O'qituvchi tarjima jarayoniga yorqin rangdagi leksik birliklar tarjimasiga jiddiyoq e'tibor qaratish lozimligini tavsiya etadi.

Ushbu interfaol metod talabalarning mustaqil fikrlash, o'z ustida ishlash ko'nikmalari, shuningdek, lingvistik, professional hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xar qanday fan sohasini o'qitishda mashqlar va ularning ahamiyati o'ziga xosdir. Mashqlar odatda dars jarayonida berilgan ma'lumotni mustahkamlashga yordam beradi. Quyida badiiy tarjimani bo'lajak tarjimonlarga o'qitishda qo'llanadigan ayrim mashqlarni keltirib o'tamiz.

Quyidagi matnni o'qing va matnda berilgan arxaizmlarni ma'nosini aniqlang. Matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga funksional ekvivalentlik, madaniy ekvivalentlik, kalkalash, so'z o'zlashtirish, tafsillash transformatsiyalaridan foydalanib tarjima qiling.

Uy jihozga g'oyatda boy, go'yo muzaxona tusini berar edi. Taxmonda turlik rangda atlas va shohilardan qoplang'an ko'rpalar, taxmon toqchalarig'a uyilgan par yostiqlar, qator-qator

xitoyi jononlar: kosalar, ko'zalar, chinni choydoshlar, laganlar, kumush qinlik xanjar va qilichlar, qalqon va siparlar, dorga soling'an turlik-turlik er va xotin kiyimlari: po'stin, chakmon va boshqalar, qip-qizil gilam va shohi ko'rpachalar kishi ko'zini qamashdirar darajada edilar.

Matnni o'qing va uni ekvivalentlik kategoriyalaridan foydalanib o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling.

Ikki kundash qarshima-qarshi o'ltirishdilar. Kumush unga tikilib-tikilib qarar edi...

Zaynab boyag'i o'ngg'aysizliqdan hali chiqib yetmagan, qizarinqirab yerga boqqan edi.

Bir-ikki daqiqani so'zsiz kechirdilar.

– Chiqmag'animni ham ko'nglingizga olibsizda, – dedi nihoyat Zaynab.

– Nega ko'nglimga olay, men yosh bolamanmi, – dedi – kelganimga o'n besh kun bo'lmasdan o'zingizni chetka tortib

boshladingiz... Men siz bilan egachi-singil bo'larmiz, deb o'ylag'an edim...

– Hali nima bo'libmiz... Arzimagan gapni ham ko'nglingizga olabersangiz...

– Bu arzimagan gapmi? – dedi Kumush, – uyda hech kim yo'qlig'ini bilaturib o'zingizni chetka tortasiz... Bu esa yuzingni ko'rishga toqatim yo'q deganingiz bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy tarjimaning lingvistik muammolarini bartaraf etishni talabalarga o'rgatish metodikasining asosiy mazmun mohiyatini shundan iboratki, ushbu masalalar asosiy ta'lim obyekti bo'lgan fanlarda tarjima uslublari, tarjima transformatsiyalarining to'liq klassifikatsiyasi birma-bir o'rgatilib borilishi lozim. Badiiy tarjima jarayonida uchraydigan lingvistik muammolarni til sathlari bo'yicha mavzular ketma-ketlik tarzida o'qitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Krings, H. P. (1986). Translation problems and translation strategies of advanced German learners of French. In J. House & S. Blum-Kulka (Eds.), *Interlingual and intercultural communication*. 263-275. Tübingen, Germany: Gunter Narr.
2. Qodiriy, A. (2018). *Days gone by* (C. Ermakova, Trans.). Paris, France: Nouveau Monde Éditions. (Original work published n.d.)
3. Qodiriy, A. (2019). *Bygone days* (M. Reese, Trans.). [Publisher not identified]. (Original work published n.d.)
4. Qodiriy, A. (2009). *O'tkan kunlar*. Toshkent, Uzbekistan: Sharq.
5. Qodiriy, A. (2017). *The days gone by: Novel* (I. M. Tukhtasinov, O. M. Muminov, & A. A. Khamidov, Trans.). Tashkent, Uzbekistan: Mashhur-Press.